

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tarix fakulteti dekani
_____ dots.S.G`oziyev
“ ____ ” _____ 2012 y.

5140600 –Tarix ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

„Afg`onistonga cheklangan sovet qo`shinlarining kiritilishi va uning
salbiy oqibatlari” mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: O`rolov Abdulla
Ilmiy rahbar: o`qit.Majidov Anvar

Ishni himoyaga tavsiya etaman _____
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) _____ (imzo)

BMI Umumiy tari kafedraasi yig`ilishining qarori bilan (Qaror № __,
___.2012 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

(Ismi va sharifi)

(imzo)

Jizzax - 2012

A.Qodiriy nomli Jizzax DPI Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi O'rolov Abdullaning "Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlarini" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

XX asrning so'nggi o'n yili sobiq Ittifoq uchun ulkan parokandalik, mustaqillikni qo'tga kiritgan respublikalar uchun esa zafarli yillar bo'lib tarixga kirdi. Sotsializm hamda uning yuqori bosqichi kommunizmni ulug'lovchi marksizm-leninizm inqirozga yuz tutib, tarix sahnasidan chekindi. 20 asrning so'nggi choragi Afg'oniston davlati, uning xalqi uchun taloto'plar, xunrezliklar, tajovuzlar, mojarolar, birodarkushlik va odamkushlik, o'zaro nizo va ichki kurashlar avj olgan davr bo'ldi.

O'zbek davlatchiligi tarixini qaytadan tiklash, uni ilmiy, tarixiy haqiqat nuqtai nazarida yangidan yaratish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotchi talaba A.O'rolovning mazkur, biz tanishib chiqqan Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BMIning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, obykti va predmeti, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari, maqsad va vazifalari kabi masalalar bayon qilingan.

BMIning 1-2-boblari to'laligicha hanuzgacha Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolik urushlarining kelib chiqish voqealarini o'z ichiga qamrab oladi. Boblarning yoritilganlik darajasi yaxshi. Tadqiqotchining ushbu mavzu ustida jiddiy ish olib borganligi seziladi. pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usullarini yoritib berishga harakat qilgan. Bobning yoritilganlik darajasi BMI talablari darajasida.

Ushbu ishda yuqorida keltirilgan yutuqlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, ishning ayrim sahifalarida imloviy xatolar mavjud. Shuningdek, ishning xulosa qismiga ham e'tibor berish lozim. Shunday bo'lsada bu kamchiliklar BMI ni ilmiy qiymatini tushurmasligini inobatga olib, uni ижобий баҳолайман.

Taqrizchi:



A.Qodiriy nomli Jizzax DPI Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi O'rolov Abdullaning "Afg'onistonga sovet qo'shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlari)" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ


Malumki, erkinlik, tinch va farovon hayot kechirish insoniyatning azaliy orzu-istagi va intilishi bo'lib kelgan. 21 asrda ham insoniyatni birlashtirib turgan yagona va qudratli kuch-tinchlikdir. Yurt tinchligi-bebaho nemat, ulug' saodatdir. Yurt tinchligi-barqaror taraqqiyot garovi.

20 asming so'nggi o'n yili sobiq Ittifoq uchun ulkan parokandalik, mustaqillikni qo'lga kiritgan respublikalar uchun esa zafarli yillar bo'lib tarixga kirdi. Sotsializm hamda uning yuqori bosqichi kommunizmni ulug'lovchi marksizm-leninizm inqirozga yuz tutib, tarix sahnasidan chekindi. 20 asming so'nggi choragi Afg'oniston davlati, uning xalqi uchun taloto'plar, xunrezliklar, tajovuzlar, mojarolar, birodarkushlik va odamkushlik, o'zaro nizo va ichki kurashlar avj olgan davr bo'ldi.

Tadqiqotchi talaba A.O'rolovning mazkur biz tanishib chiqqan Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, obykti va predmeti, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari, maqsad va vazifalari kabi masalalar bayon qilingan.

BMIning 1-2-boblari to'laligicha hanuzgacha Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolik urushlarining kelib chiqish voqealarini o'z ichiga qamrab oladi. Boblarning yoritilganlik darajasi yaxshi. Tadqiqotchining ushbu mavzu ustida jiddiy ish olib borganligi seziladi. pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usullarini yoritib berishga harakat qilgan. Bobning yoritilganlik darajasi BMI talablari darajasida.

Ushbu ishda yuqorida keltirilgan yutuqlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, ishning ayrim sahifalarida imloviy xatolar mavjud. Shuningdek, ishning xulosa qismiga ham e'tibor berish kerak. Shunday bo'lsada bu kamchiliklar BMIning ilmiy qiymatini tushurmasligini inobatga olib, ishni ijobiy baholayman.

Taqrizchi:  *B. Husanov*
 DPI goshidagi
 tarix fani
 o'qituvchisi

Mavzu: Afg`onistonga sovet qo`shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlari

Kirish.....

I-Bob: Afg`on urushining kelib chiqishi va unga jahon hamjamiyatining munosabati.....

1.1.Sovet qo`shinlarining Afg`oniston hududiga kiritilishi arafasidagi jahondagi xalqaro vaziyat.....

1.2.Sovet qo`shinlarining Afg`onistong akiritilishi.....

1.3.Jahon hamjamiyatining sovet qo`shinlarining Afg`onistonga kiritilishiga munosabati.....

II-Bob: Afg`on urushining boshlanishi. Urushining borishi.....

2.1.Sovet qo`shinlarining „Cheklangan kontingenti” (OKSC) ning umumiy tavsifi.....

2.2.Afg`oniston islom muxolifatiga umumiy tavsif.....

2.3.Afg`onistondan sovet qo`shinlarining olib chiqib ketilishi. Afg`on urushining ahamiyati va oqibatlari.....

2.4. Umumta`lim maktablarida, KHK va AL larda mavzuni pedagogik texnologiyalar asosida o`quvchilar va talabalarga o`rgatish usullari.....

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix faniga doir tadqiqotlarni har taraflama takomillashtirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, "o'z tarixini bilgan, undan ruxiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni anashu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir qurollantirishimiz zarur!"¹

Turli tarixiy manbalar orqali tariximizni dolzarb muammolarini xal qilish, ularni keng ommaga yetkazishga qator ijobiy ishlar qilinganligi va bu borada hali ko'plab ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish tarixchilarimizning bosh vazifasi bo'lib qolayotganligini shu o'rinda ta'kidlash joiz.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi biz uchun nafaqat o'z otabobolar merosini balki, boshqa xalqlarning ham ilmiy merosini o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni berdi.

Ilgarilari soxtalashtirib kelingan Vatanimiz tarixini chuqur qayta tafakkur qilish, o'tmishimizni tadqiq etish uchun mutlaqo yangicha nazariy va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga katta ehtiyoj borligi xususida davlatimiz rahbarining qator asarlari hamda nutqlarida bir necha bor eslatib o'tiladi. Jumladan, o'zbekistondagi tarix fanining taraqqiyotiga I.A.Karimovning respublika tarixchi olimlari bilan 1998 yil yozida o'tkazgan uchrashuvi, shuningdek, Prezidentimizning milliy mafkurani shakllantirishga doir chiqishlari alohida o'rin tutadi. Yurtboshimizning mazkur uchrashuv chog'ida bildirgan fikrlarida va yuqorida eslatilgan chiqishlari O'zbekistonning yangi tarixini yaratish hamda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan kamol topdirish uchun boy o'tmish tariximizni xolisona o'rganish o'ta dolzarb vazifa ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T.: „O'zbekiston“, 1999, 149-bet

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda qabul qilingan “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqida”gi qarorida tarix fani muammolariga, tarixni milliy istiqlol nuqtai nazaridan o‘rganishning falsafasi va uslubiyatini egallash masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilgan¹.

Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil. Unda turli madaniyatlar yonma-yon yashaydi va bir-biriga ta‘sir krsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kirishish, do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqelikning muammolarini chuqur bilim va bu bilimdan umid manfaati yo‘lida foydalanish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va barqarorlik kafolatlari” kitobida dunyo mamlakatlari bilan tinch-totuv yashash va hamkorlik qilishning ahamiyati xususida to‘xtalib, shunday yozadi: “Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So‘nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning jo‘g‘rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o‘zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to‘g‘ri baxo berish juda muhim”

Mustaqillik tufayli O‘zbekistonni dunyo tanidi va o‘z navbatida mamlakatimiz dunyo mamlakatlari tomonidan mustaqil davlat sifatida tan olindi. Har bir millat va elat, etnik guruhlar, ularning urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishi sababli yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar teng huquqlilik asosida umrguzaronlik qilmoqda². Mustaqillik sharofati bilan Yurtboshimiz rahbarligida O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo‘li tanlandi, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda; istiqlol Ma‘naviyatini shakllantirish va sog‘lom avlodni voyaga yetkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston BMT ga (1992 yil 2 mart), Yevropaga Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o‘nlab halqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi, deyarli barcha nufuzli mintaqaviy uyushmalarga qabul qilindi, dunyodagi ko‘plab

¹ „Xalq so‘zi“ gazetasi. 1998 yil. 28 iyul

² B.Ochilova Murabbiy-qadriyatlar targ‘ibotchisi. J/: „Sangzor“, 2012, 12-b

davlatlar (130 dan ortiq) bilan diplomatik aloqalar o`rnatdi, o`zaro hamkorlik munosabatlari yo`lga qo`yildi. Istiqloq davrida mamlakatda tinchlik va davlatlar o`rtasida tinchlikparvar tashqi siyosat yuritilmoqda.

Bizga ma`lumki, qo`shni Afg`oniston hududi hamon mintaqamizdagi eng notinch joy sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qayd etib kelinmoqda.

Jamiyat uchun an`anaviy bo`lgan diniy qadriyatlar va aqidaviy ahkomlar tizimini inkor etish va ularga zid bo`lgan “g`oyalar”ni agressiv tarzda targ`ib qilish, bir so`z bilan aytganda diniy ekstremizimning asosiy markazlaridan biri sifatida Afg`onistondagi notinch vaziyat dunyo tinchligiga tahdid solmoqda. Diniy ekstremizim va u bilan bog`liq terorizmning Markaziy Osiyoga kirib kirib kelishida aynan Afg`oniston o`ziga xos darvoza vazifasini o`tamoqda.

Mazkur biz tanlagan BMI ning tadqiqot mavzusi “Afg`onistonga sovet qo`shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlari”deb nomlandi. Mazkur muammoni mustaqillikkacha va mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy manbalar (respublikamiz olimlari, xorijlik tadqiqotchilarning izlanishlari, gazeta va jurnallar, arxiv materiallari va h.k lar) asosida imkoniyatimiz darajasida ochib berishga harakat qildik. Ushbu tadqiqot mavzusi 1979-1989-yillar tarixiy voqealarni o`z ichiga olsada, biz bugungi kunda jahonda mavjud bo`lib turgan global muammolar xalqaro terrorizm, diniy ekstremizimning tub ildizini o`rganilayotgan davr muhitidan izlashga intildik. Shu bois ishni ilmiy asosda yoritishni o`z burchimiz deb bildik.

Bitiruv malakaviy ishining davriyligi:

Ma`lumki, Eron, Xitoy va Hindistonga boradigan yo`llarda joylashgan Afgoniston A.Makedonskiy, Hindlar, Bosiylar, Arablar, Mo`g`ul tatarlar, Bobur tomonidan zabt etilgan edi. 1747-yilda Axmad shoh boshliq dastlabki Afg`on davlati tuziladi. Durroniylar sulolasi 1818 yilgacha aniqrog`i, Buyuk Britaniya Afg`onistonni o`z nazorati ostiga olgunga qadar hukmronlik qilgan. 1919-yida hokimiyatni egallagan Omonnullaxon Sover Rossiyasi yordamida mustaqilligini e`lon qiladi. 1929-1973 yillarda hokimiyat Nodirshoh sulolasi qo`lida bo`lgan. 1978-yilgi navbatdagi harbiy to`ntarishdan so`ng hokimiyat tepasiga kelgan

Muhammad Taraqqiy Afg'onistonni demokratik respublika deb e'lon qiladi. 1979 yili hokimiyat tepasiga kelgan Babrak Kalmanni qo'llash uchun sovet qo'shinlarining "Cheklangan kontingenti" mamlakatga kiritiladi. 1986-yilda uning o'rniga Najibullo keladi. 1989-yilda sovet qo'shinlari Afg'onistondan chiqarilgandan keyin ham hukumat mujohitlar o'rtasidagi kurash davom etgan.

Mazkur BMI 1979-1989 Afg'on urushi voqealari o'z ichiga qamrab oladi, bunda Sovet qo'shinlarining "cheklangan kontingenti" ning Afg'onistonga kiritilishi, urushning borishi AQSHning SSSR Afg'onistonda o'z pazisiyalarini mustahkamlashga qarshiligi, Pokistonni AQSH plasdorniga aylantirilishi va hamda o'n yillik urush yakunlari, Sovet qo'shinlarining Afg'oniston hududidan olib chiqib ketilishi voqealari o'rganadi. Hali bu haqida batafsil BMI mizning keyingi sahifalarida bu muamolariga yana qaytamiz.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Mazkur ishda ko'rib chiqilayotgan Afg'onistonga Sovet qo'shinlarining kiritilishi va uning salbiy o'qibatlari muammosi bitiruv malakaviy ishi mavzusi sifatida va ayniqsa, Afg'onistonnig yaqin yillik tarixi tadqiqoti sifatida nisbatan kam o'rganib chiqilgan.

Ishning asosiy maqsadi: Juda ko'plab materiallar va ilmiy adabiyotlar hamda eng yangi ma'lumotlar (gazeta va jurnal materiallari zamonaviy internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar) ga tayangan holda mavjud oldimizda turgan mazkur muammoni tarixiy yoritishdan iborat.

Yaqin o'tmishimizdan bizga ma'lumki, bir qancha o'n yilliklar mobaynida sobiq SSSR "Qamaldagi qal'a" holatida yashab keldi. Harbiy -siyosiy bloklar o'rtasidagi muholiflik bir necha bor butun dunyoni o'zaro qirg'in keltiruvchi yadroviy urush yoqasiga olib bordi. Dunyoni mafkuralar to'xtovsiz kurash olib boradigan maydon deb hisoblovchi sinfiy yondashishning qotib qoldan mantiqi yangi harbiy – siyosiy voqealikda ta'sirchanlikni alla qachon yo'qotdi. Lekin hech narsaga qaramay, urushdan keyingi dunyoda "Sovuq urush" goh so'lib, goh avj olib, tinimsiz davom etti, uni haqiqiy urushdan ajratib turadigan chegara esa juda zaif edi. Mafkuraviy qarama-qarshilikning yana bir jihati bor edi: U SSSR uchun juda qimmatga tushdi. 70-80 yillardagi mafkuraviy muholiflik SSSR harbiy

harajatlariga tahminan 700 milliard so`m qo`shdi¹. Holbuki, bu mablag`larni tinch maqsadlarda ishlatish mumkin edi.

¹ V.P.Ostrovskiy SSJI tarixi T.: „O`qituvchi“, 1992, 49-b

I-Bob. Afg`on urushining kelib chiqishi va unga jahon hamjamiyatining munosabati

1.1. Sovet qo`shinlarining Afg`oniston hududiga kiritilishi arafasida dunyodagi xalqaro vaziyat

Afg`oniston – zamonlar rishtasi chindan-da uzilib qolgan, bir vaqtlar bu zaminda mavjud bo`lgan, hozirgi tojiklar va o`zbeklarning ajdodlari yashagan buyuk sivilizatsiya va davlatlarning izlarini davr to`zonlari ko`mib yuborgan mamlakat. Natijada bu joyda yashagan halqlar u yerdan ketib qoldi- kim janubga, kim shimolga, kim g`arbgaga. Qadim zamonlarning bazi memorchilik yodgorliklarigina saqlanib qoldi¹.

Qobulda qadimgi Bolo Hisor qo`rg`oni saqlanib qolgan. U garchi Hirotdan yarim ming yilcha yosh bo`lsa-da, tahminan London bilan tengdosh. Bu shahar XVI asr boshlarida Boburiylar davlatining poytahti bo`lgan.

Afg`onistonning eng yirik etnosi- pushtunlar. Ular jangari va urush olib boorish uchun yaxshi uyushgan bo`lib, o`z harbiy jasoratlarini bir necha bor amalda isbotlaganlar. Pushtunlar o`zlarining dastlabki davlat tuzilmalarini XVI asrda barpo etgan bo`lib, tez orada (Turklar bilan bir vaqtda) Eronni bosib oldilar. XVIII asrning birinchi yarmida Nodirshoh Ashraf Turklar va pushtunlarni Erondan quvib chiqaradi hamda Afg`oniston hududini bosib oldi. Ashraf imperiyai parchalanib ketganidan keyin Ahmadshoh Durroni tomonidan birinchi Afg`on davlati-Durroniylar saltanatiga (1747-1818 yillar) asos solindi. Bu davlat eng ravnaq topgan davrida hozirgi Afg`oniston hududidan tashqari shimoli - sharqiy Hindiston , sharqiy Eron, janubiy Turkiston hududlarini o`z tarkibiga qo`shib olgan edi. Uning poytahti avvaliga Qandahor, so`ngra esa Qobul bo`lgan. XIX asrda va XX asr boshlarida buyuk Britaniya uch marta urinib ko`rdi. Bu urunishlar uning uchun sharmandali tugadi. Angiliya birinchi ingiliz-Afg`on urushidayoq 1838-1842 dastlabki mag`lubiyatga uchradi. Ikkinchi urush 1878-1880

¹ . L.Levitin. O`zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: "O`zbekiston", 2001, 294-b

yillar0 natijasida inglizlar Afg'onistonning tashqi siyosati ustidan nazoratni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar, biroq Afg'onistonni zabt etish amalga oshmadi. 1919- yil mayida Buyuk Britaniyaga qarshi milliy-ozdlik urushiga Afg'oniston podshosi Omonnullahon boshchilik qildi. 1919 yil iyunidayoq Buyuk Britaniya Afg'onistonning mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi. Bu – Angiliyaning mustamlakachilik urushlaridagi kamdan – kam yuz bergan, ehtimol birdan - bir, ana shunday katta mag'lubiyati edi, deyish mumkin. Bu mag'lubiyat O'rta Osiyoda Sovet hokimiyatining qaror topishiga yordamlashdu, chunki u Angiliyaga qattiq zarba berdi.

Omonulloxon Afg'onistonning XX asr tarixidagi eng mashhur siymo edi. Bunday hulosa chiqarish uchun uning uchunchi Ingiliz- Afg'on urushida qo'lga kiritgan galabasiyoq kifoya. Lekin Omonulloxon eskirib ketgan feodal tartibotlarni tugatishga, milliy iqtisodiyotga kapitalistik munosabatlarni rivojlantirishga, milliy ma'daniyatni yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalgam oshira bosladi. Mana shu vaqtda Afg'oniston tarixida oqilona tushuntirib berish qiyin bo'lgan voqealar boshlanadi. Go'yo taqdir bu mamlakatni o'z girdobiga tortgandek, go'yo qandaydir nomalum ilohiy kuch turmush maromini halokat sari burib yuborgandek.

1929-yilda Angliya tomonidan qo'llab-quvvatlangan isyon natijasida Omonulloxon taxtdan ag'darildi. Hokimiyatni feodal-klerikal reaksiya vakillari bosib oldi, Afg'onistonning ilg'or taraqqiyoti to'xtatib qo'yildi. Omonulloxon muhojirlikda yana 3 yil yashadi. U o'z mamlakati uchun qancha ishlar qilishi mumkin edi. 1929 yil oktyabrda hokimiyat tepasiga Nodirshoh sulolasi kelib, 1937 yil iyuliga qadar, mamlakatda to'ntarishi natijasida mamlakatda to'ntarish natijasida respublika e'lon qilinguncha hukmronlik qildi. Bu to'ntarish hukmronlik qildi. Bu to'ntarish mamlakatga qanday zarar keltirgani hozir barchaga ayon.

Ikkinchi Ingliz-Afg'on urushidan keyin Dyuran chizig'i o'tkazilgan bo'lib, u etnik pushtunlar yashagan hududni ikkiga bo'lib tashladi. Lrkin Afg'ionistonda so'nggi yuz yil qo'ldan ketgan hududlarni qaytarishga, hozirgi

pokistonni bir qismi hisobiga Pushtuniston berpo etib, unga Pokistonning okeanga chiqish imkonini beruvchi Belujistonni qo`shishga harakat qilish bilan o`tdi.

XIX asr ohirida Afg`onistonning shimoliy chegarasi hozirgi hozirgi holatiga Rossiya, Britaniya, va Afg`oniston mamlakatlari tomonidan tan olinganidan keyin, Buxoro amirligining turkiy tili va forsiy tili aholisi jo`g`rofiy gorizontal bo`yicha bir-biridan ajralib qoldi. Lekin bu hol o`sha vaqtda ularning oilaviy va savdo aloqlari buzilishiga olib kelmadi. Qizil armiya Buxoro amirligini tor-mor qilganidan keyin Sharqiy Buxoroning yarim millionga yaqin aholisi Afg`onistonning chegaraga yaqin yerlariga qochib boradi. Umuman esa, XX asrda Afg`oniston O`rta-Osiyodan muhojirlikning uchta-yigirmanchi yillar boshidagi, o`ttizinchi yillar o`rtalaridagi va to`qsoninchi yillar boshlaridagi to`lqinini boshidan kechirdi.

Bu hol Afg`on bo`lmagan etnoslar salmog`i o`zgarishiga ta`sir ko`rsatmasligi mumkin emasdi. 80-yillarning o`rtalaridayoq mamlakatdagi O`zbeklar va tojiklar soni deyarli 30 % ga yetdi.

Armiya qismlari 1978 yilning 27 aprelda AXDP rahbarligida davlat to`ntarishi o`tkazdilar. To`ntarishni polkovnik Abdulqodir boshqardi¹. Hokimiyat kengash qo`liga o`tdi. Bu kengashga AXDP rahbari N.M. Taraqqiy rahbarlik qildi. B.Karmal unga o`rinbosar bo`ldi. Dovud o`ldirildi. 1977 yilgi Konstitutsiya bekor qilinib, 1978 yil 30 aprelda mamlakat Afg`oniston Demokratik Respublikasi deb e`lon qilindi.

Bu g`oyaning Afg`oniston uchun bema`niligi va mutlaqo norealligi yaqqol ko`rinib turardi. Qobuldagi aprel to`ntarishi (Afg`onistonda qabul qilingan taqvim bo`yicha - savr oyining 7-kuni) Qobul garnizoning 4 va 15-tank brigadalari tomonidan amalga oshirildi. O`sha vaqtda podsho saroyi qo`riqchilariga tanklar bilan hujum qilish. Afg`oniston hayotida ham, butun mintaqa hayotida ham tub o`zgarishlarga olib keladi, deb hech kim o`ylamagan edi. Ayniqsa, u Sovet Ittifoqi parchalanib ketishining bilvosita

¹ M.Lafasov. U.Jurayev. Jahon tarixi. T.:“Turon –Iqbol nashriyoti”, 2006, 270-b.

sabablaridan biri bo'lishini hech kim bilamagan.² ADP e'lon qilingach, Taraqqiy o'z mavqeyini mustahkamlash maqsadida SSSR bilan munosabatni yaxshilay boshladi.

Yangi hukumat Afg'onistondagi real hayotni hisobga olmay islohotlar o'tkazishga kirishdi. Bu islohotlar SSSR da o'tkazilgan islohotlar anozasiga o'tish edi. Shuning uchun ham Afg'oniston halqi bu islohotlarni qabul qilmadi. Ruhoniylar hukumat siyosatini islom asoslaridan qaytish, deb baholadi. Ular aholini Sovetparast hukumatga qarshi kurashga chaqirdi. Millionlab halq Pokiston va Eron hududiga qochib o'tdi. Hukumatga qarshi kuchlar ittifoqi vujudga keldi. AXDP da birlik bo'lmadi. 1978 yil 17 avgustda B.Karmal, Abdulqodir va boshqalar fitnada ayblanib qamoqqa olindi. Bu omil mamlakatda fuqarolar urushu boshlanishini muqarrar qilib qo'ydi. Bu e'lon qilinmagan urushni Garb rag'batlantirdi³. Buning ustiga AXPD ichida hokimiyat uchun kurah boshlandi. Shunday sharoitda, 1979 yil sentyabr oyida Taraqqiy o'ldirildi. Hokimiyatni uning o'rinbosari, suiqasd tashkilotchisi H. Amin egalladi. Mamlakatda terror va zo'ravonlik avj oldi. Aprel inqilobi shu bilan barham topdi. Bu davrga kelib qurolli muholifat kurashni kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Hukumat qoshinlari naorati ihtiyorida faqat Qobul yana bir nechta shahar qoldi, xolos. Shunday sharoitda Afg'onistonning o'z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avanturaga qo'l urdi.

1979 yil 25 dekabr SSSR qo'li bilan Amin hukumati ag'darildi. SSSR da sodiq bo'lgan va Pragadagi alchilik vazifasidan afg'onistonga kelgan B. Karmal prezidentlik lavozimiga o'tkazildi. 28 dekabr SSSR o'z harbiy qismlarini Afg'onistonga kiritdi. Tez orada bu qo'shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahon jamoatchiligi SSSR ning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda Sovet- Amerika munosabatlari yana keskinlashdi. 1982 yildan Jenevaga bu masalada BMT komissiyasi ishladi.

² L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: „O'zbekiston“, 2001, 296-b

³ M.Lafasov. U.Jo'rayev. Jahon tarixi T.: “Turon-Iqbol nashriyoti”.2006.

Asosan Pokiston hududiga joylashgan muholifatchi kuchlar AQSH ning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. SSSR qo`shinlari Afg`onistonda 10 yil turdi. Harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. Xo`sh, nega shunday bo`ldi?

Chunki Afg`oniston hukumati Sovet nushasidagi jamiyatni qurmoqchi bo`lgan edi. Afg`onistonga bunday jamiyatning qurishning esa iloji yo`q edi. Ikkinchidan, Afg`on xalqi ko`z o`ngida yangi hukumat atsistik davlat armiyasini o`z davlati hududiga kiritib katta gunohga botgan edi. Bunday hukumatni qo`llash esa undan-da katta gunoh bo`lur edi. Shu tariqa SSSR Afg`onistonda harbiy mufaqqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M.S. Gorbachyov SSSR armiyasini Afg`onistondan olib chiqib ketishga qaroq qildi. Va 1989 yilning fevral oyida bu vaizfa amalda bajarildi. 15 mingdan ortiq Sovet jangchilari halok bo`ldi.

Sovet qo`shinlarining cheklangan qismi 1979 yil Afg`onistonga kiritilgan edi va 1989 yil tashlab chiqdi. Shunday qilib, Afg`oniston demokratiya respublikada CHSQQmi tarkibi quyidagilardan iborat edi:

Cheklangan sovet qo`shinlarining Afg`onistondagi qismi-(40 OA)Qobul.

- 108-motorlashtirilgan o`qchi diviziya – Bagram
- 177- motorlashtirilgan o`qchi polk- Djabay-Usaradj
- 180- motorlashtirilgan o`qchi Bagram
- 181- motorlashtirilgan o`qchi Bagram
- 682- motorlashtirilgan o`qchi polk (04.1984 yilgacha-285-tank polki) Bagram.
- 1074-artileriya polki – Bagram
- zenitchi –raketa polki- Bagram-Termiz
- 350-alohida tankka qarshi zambarakchilar divizian- Bagram
- 781-aloxida razvetkachi batalyon-Bagram
- 271-aloxida minalar qidiruvchi muhandislik batalyon-Bagram
- 808-alohida aloqachilar batalyon Bagram
- Alohida reaktiv divizioni Bagram
- Alohida tiklab ta`mirlovchi Bagram

-Alohida moddiy taminlovchi batalyon Bagram

-Alohida tibbiy -sanitariya batalyoni –Bagram

5-gvardiyachi motorlashtirilgan o`qchi diviziya Shindon

-12- Gvardiyachi motorlashtirilgan o`qchi polk (09.80-05.86) Shindon – Mari

-101-Motorlashtirilgan o`qchi polk –Hirof

-371-Gvardiyachi motorlashtirilgan o`qchi polk –Shindon

-24-Gvardiyachi tank polki (Afg`onistondagi vaqti 26,12,79,05,86)- Shindon – Mari

-1072-Gvardiyachi artileriya polki-shindon

-Zenitchi reklama polki(Afg`onistondagi vaqti 26,12,79,-05,86)Shindon Mari

-1377-alohida tankga qarshi zambaraklar divizioni-Shindon

-650-alohida gvardiya razvetka qidiruv batalyoni –Shindon

-68-alohida gvardiyachi muhandislik mina qidiruvchi batalyoni – Shindon

-388-alohida a`loqachilar batalyoni –Shindon

-alohida reaktiv divizion –Shindon

-177-alohida tiklab-tamirlovchi batalyon-Shindon

-Alohida moddiy ta`minlovchi batalyon –Shindon

-Alohida tibbiy sanitariya batalyon –Shindon

-201-motorlashtirilgan o`qchi diviziyasi –Qunduz

-122-motorlashtirilgan o`qchi polk –Tashqo`rg`on

-149-gvardiya motorlashtirilgan o`qchi polk-Qunduz

-395-motorlashtirilgan o`qchi polk-Puli-Xumri

-234-tank polki Qunduz –Termiz

-1060-artileriya polki-Qunduz

-Zenitgi-raketa polki Qunduz –Termiz

-350-alohida tankka qarshi artilleriya diviziyasi-Qunduz

-783-alohida razvetkachi batalon –Qunduz

-541-alohida muhandislik-mina qidiruv bataloni –Qunduz

-252-alohida a`loqa bataloni –Qunduz

- Alohida reaktiv divizion-Qunduz
- 340-alohida tiklab-tamirlovchi botalon –Qunduz
- alohida moddiy ta`minot batalyoni –Qunduz
- 99-alohida tibbiy sanitariya batalyoni –Qunduz
- 103-gvardiya havo-desanti diviziyasi-Bagram
- 317-gvardiya parashot desant polki Bagram
- 350-gvardiya poroshot – desant polki –Bagram
- Gvardiyachi zambarakchilar polki – Bagram
- 262-alohida vertalyotchilar eskadriliyasi-Bagram
- 105-gvardiyachi alohida zenitchi raketa diviziyani –Bagram
- 742-alohida gvardiyalar aloqa batalyoni-Bagram
- 80-alohida gvardiyachilar aloqa batalyoni –Bagram
- 612-alohida kimyo muhofazasi divizioni –Bagram
- Alohida tiklovchi-ta`mirlovchi batalyon-Bagram
- alohida tibbiy –senitariya batalyoni-Bagram

15-Maxsus topshiriqlar brigadasi –Jalolbek

- 154-otryad yoki 1-alohida motorlashtirilgan o`qchilar batalyoni (21.10.81.-05.88.)Jalolbek
- 177- otryad yoki 2- alohida motorlashtirilgan o`qchilar batalyoni-G`azna
- 334- otryad yoki 5- alohida motorlashtirilgan o`qchilar batalyoni-Asadobod
- 668- otryad yoki 4- alohida motorlashtirilgan o`qchilar batalyoni-Barak
- 22-Maxsus topshiriqlar brigadasi (vaqti 04.85-05.88)-Lashkargoh
- 173-otryad yoki 3- alohida motorlashtirilgan o`qchi batalyoni-(10.02.84.-05.88)Qandagar
- 186- otryad yoki 7- alohida motorlashtirilgan o`qchi batalyon-Shaxdjay
- 370-bo`linma yoki 6-alohida motorlashtirilgan o`qchi batalyon –Lashkargoh
- 411- bo`linma yoki 8-alohida motorlashtirilgan o`qchi batalyon-Farax
- 56-gvardiyachi havo desantlari brigadasi 956-gvardiya alohida desant-ishg`ol qiluvchi brigadasi)-Qunduz

- 66-motorlashtirilgan o`qchi brigada (04.1980y-186-polk)Jalolbek
- 70-gvardiya motorlashtirilgan o`qchi brigadasi(04.1980 yilgacha -373gi polk)Kondagar
- 58-avtomobil brigadasi-Qobul
- 59-moddiy ta`minot brigadasi-Qobul
- 2-Zenit-raketachi brigadasi (25.12.85.-08.80)-Qobul-Termiz
- 353-Zambarak artilleriya brigadasi (25.12.85-08.80)-Qobul-Termiz
- 191-alohida moto-o`qchi polki-G`azna
- 860-alohida motorlashtirilgan o`qchi polki –Fayzabod
- 28-alohida zambarak polk-Jalolobod
- 345-alohida gvardiya parashot-desant polki-Bagram
- 45-alohida muhandislik saperlar polki-Qobul
- 103-alohida aloqa polki –Qobul
- 264-Maxsus ko`rsatmaga ega radio va radio-texnika razvetka polki –Qobul
- 103-alohida aloqa polki-Qobul
- 264-Mahsus ko`rsatmaga ega radio va radio-texnika razvetka polki-Qobul
- 230-alohida so`qmoqlar bo`yicha aloqa batalyoni(03.80dan -02.89)-Qobul
- 469-Mahsus ko`rsatmaga ega alohida rota-Bagram
- 797-dushmanni kirdikorlarini o`rganuvchi xarbiy bo`linma markazi-Qobul
- 421-garnizon aloqa bo`limi-Qobul
- 64-aralash aviatsiyakorpus(Harbiy havo kuchlari 40 OA)-Bagram

Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin inson ongida tarixiy dalillarga, har-xil o`zgarishlarga qiziqish ortadi. Bu esa Afg`onistondagi urushga ham talluqli.Yo`qotilganlarning aniq bo`lmagan soni yoki mafkuraviy bo`limlari va nafaqat jangchi baynalminalchilarning cheklangan qismi, balki Davlat xavfsizlik qo`mitasi nazoratidagi bo`linmalar bo`lgan chegara qo`shinlari haqida so`z yuritamiz. Shunday qilib 1982-yilning yanvar oyida Afg`onistonning shimoliy hududlariga chegara qo`shinlarining shtatli bo`linmalari kiritilgan edi. Boshda ularning motorlashtirilgan, chaqqon harakat qiluvchi 6 ta guruhi qo`yildi. Motorlashtirilgan, chaqqon harakat qiluvchi guruhlar chegara qo`shinlarining 5 ta

shaxsiy tartibdagi BTR yoki BMP, boshqaruv bo`limi, texnik bo`linma, saperlar bo`linmasi va minaizlovchi itlardan iborat edi. Alohida chegara hududlari minamyotchilar guruhi, tankga qarshi guruhlar aloqa tizimi bo`lgan harakatdagi BTR-60 "Chayka" texnikalari bilan kuchaytirildi. Kuchaytirilgan chegara qo`shinlari tartibiga razvetkachilar va tibbiy hodimlar va boshqa harbiylar kiritilishi mumkin edi. Shaxsiy tartib o`zlarida avtomatik qurollar merganlik miltiqlari, ATS-17 markadagi avtomatik granatalar bilan qurollangan edi. Chegara qo`shinlarini boshqarish chegara boshlig`iga va uning ikki yordamchisiga, moddiy-texnikaviy ta`minotga chegara starshinasi javobgar edi. Motorlashtirilgan chaqqon harakat qiluvchi guruh 200-300 kishidan iborat edi. MCHXKG tarkibida minamentchilar batareyasi, 6 ta minamentchilar gruppasi, harbiy gruppasi 82-mm va 120 minametlar, bilan qurollangan bo`lib, GAZ-66 avtomobillariga biriktirgan edi. Bundan tashqari MCHXKG hisobiga 3 raschyotdan iborat tanklarga qarshi zarba beruvchi vzvodlar mavjud edi. Muhandislik –Saperlar vzvodi minaizlagich asboblari, yer ostidagi bazi narsalarni qidirib topadigan asboblar, maxsus o`rgatilgan minaizlovchi ishlar, zirxli texnikalar. Chaqqon harakat qiluvchi razvetka bo`linmasi BTR va BMP lar bilan uzoq masofaga yetib borishga mo`ljallangan edi.

Afg`oniston hududida

Qo`shinlar oldiga bajarish uchun javobgarlik chizig`i 10 dan 100 kilometr ichkariga kirish mumkin edi. O`sha yilning fevral oyidayoq chegara qo`shinlari reja asosida tartib boshlab, javobgarlik chizig`ini, harakatdagi bosqinchilar to`dasidan tozalash boshlab yuborildi. Birinchi navbatda chaqqon harakat qiluvchi guruhlar tog`li hududlarga kirishildi. Afg`onistondagi keyingi chegara qo`shinlari ikki baravar kuchaytirildi. 12 ta motorlashtirilgan chaqqon harakatdagi guruhlar bir necha viloyatlarda alohida garnizonlar to`lib, o`zlarini modjaxedlardan himoya qilish uchun, hamda pistirmadan hujum qilish va patrul harakatlarni amalga oshirdilar. Modjaxedlarni katta to`dalari qarshi keng ko`lamli operatsiyalar olib borishda bir necha motorlashtirilgan chaqqon harakat qiluvchi guruhlar

qo`shilishi mumkin edi. Bundan tashqari Ittifoq hududida qattiq hujumga o`tuvchi, tezkor desant guruhlari harakatga bo`lib ular 4 ta tashkil etib har birida 50-60 nafar kishidan iborat edi. Joyning geografik o`ziga xos xususiyatlari, joylashishi Motorlashtirilgan chaqqon harakat qiluvchi guruhlarga va desant qo`shinlariga ham ularning harakatiga qarab aniq lekin bir-biridan farq tuzilishidagi ma`lumotlar aytib yozdirilar edi. Chegara qo`shinlarining mintaqa javobgarligi shartli ravishda, tog`li,tog`-cho`l va cho`l hududlariga bo`linar edi. Pomir tumanlari baland tog` hududlari (Badaxshon vil) da bo`linmalar karvon yo`llarining kesishmasida, Pokistonda kelayotgan karvonlarning taxminan yo`llar nazoratga olinar edi.

Tez-tez bo`linmalar joylashishini o`zgartirib turlar, ko`p alohida qo`shinlar, postlarda qisqa muddatli o`zgarishlar bo`lib turar edi. Bo`linmalar joyni o`zgartirish tezlik bilan harakat qilishda havoda vertalyotlardan BMP va BTR lar hamda piyoda amalga oshirilardi. Chaqqon va qattiq hujum qiluvchi desant guruhlari u hududda asosan pistirmadan zarba berishar edi. Barcha harbiy harakatlar dushmanlarning harakat kirdikorlarining o`rganuvchi, unga qarshi kurash olib boruvchi harbiy bo`linma ma`lumotlariga qarab shu yoki boshqa hududlarda mojaxedlar borligicha inobatga olinib rejalar qabul qilinar edi va amalga oshirilar edi. Afg`onistonning shimoliy hududlaridagi rejali harbiy harakatda 5-7 motorlashtirilgan chaqqon harakat qiluvchi guruhlar kuchaytirilgan minametlar har biri 200 kishi dan 1-3 desant guruhlari 20-40 vertalyot hamda 200 yoki ming kishidan iborat afg`on bo`linmalari jalb etilar edi. Mojaxedlarning qaytish yo`lini vertalyotda tashlangan desant bo`linmalari to`sishtar edi. Harbiy harakatlar hududiga bir necha jangovar chegara qo`shinlari dushmanni to`r ichiga olar edi. Keyinchalik esa qurshab olingan hudud tozalanar edi. Harbiy harakatlar 2-4 bosqichida olib borilar, hatto oylab cho`zilar edi, buning hammasi 40-armiyaning motorlashtirilgan o`qchi qismiga talluqli bo`lgan bo`lsa ham shunday "nonni" chegara qo`shinlari ham tartib qo`yishdi. Mamlakatning Sharqiy va Janubiy qismida alohida vazifa bajaradigan otryad qurol aslaha o`q dorilar ortilgan karvonlar asosiy obyekt bo`lsa, chegara qo`shinlari esa ko`chib o`tmoqchi bo`lgan

bosqinchi guruhlar obykti bo`lib kelgan. Kelib tushgan yaxshi razvetga ma`lumotlariga tayangan holda chegara qo`shinlari, dushman dala kamandiriga qarshi aniq harakat qilishar edi.

Tajriba shuni ko`rsatadiki dala komandirlari boshqargan partizam otryadlarini yo`q qilish, asrga olishda ular tarqalib ketishar edi. Shuni hisobga olgan bosqinchilar boshliqlari bir joyda bir necha soatdan ortiq bo`lmas edilar. Boshliqlar biror-bir qishloqqa kelib dala kamandirlari bilan tez hukumat yig`ilishi o`tkazishar, va shu anda boshqa hududga ketishar edilar.

Transport vositasi sifatida ular ko`pincha ot yoki mototsikllardan foydalanishar edilar. Mojoxed bosqinchilar to`dasi boshliqlari chegara qo`shinlari obykti bo`lib qolar edi. Pistirmalar tunda hududlar bo`ylab motorlashtirilgan, chaqqon harakat qiluvchi guruhlar tomonidan 5 da 20 km gacha masofa bo`ylab olib borilar edi. Ayrim hollarda pistirmalar katta hududlarda 50 kishidan iborat bo`lgan soqchilar otryadi ishtirok etar edi. Bunday pistirmalar bir necha kundan hatto haftalar davom etar edi.

1979-1989-yillarda Afg`on urushida Sovet ittifoqining ishtiroki.

KPSS Markaziy qo`mitasining maxfiy rasmiylashtirilgan qarori va KPSS Markaziy qo`mitasi siyosiy byurosining 12 dekabr 1979 yildagi qo`shma yig`ilishida Sovet qo`shinlarini Afg`onistonga kiritish qarori qabul qilingan. Kiritishdan maqsad rasmiy ravishda urush xavfi oldini olish chet – el harbiylarini aralashuvini oldini olish edi. KPSS markaziy qo`mitasi siyosiy byurosi asos sifatida Afg`oniston hukumatining bir necha bor iltimosi edi. Cheklangan Sovet qo`shinlari qismi bevosita Afg`onistondagi fuqorolar urushiga tortildi va uning faol ishtirokchisiga aylandi. Bunday kelishmovchilikda Afg`oniston Demokratik Respublikasi hukumati qurolli kuchlari bir tomonda, qurollangan oppazitsiya (qarshilik ko`rsatuvchi dushmanlar Mojoxedlar) turar edi. Afg`oniston hududida to`liq siyosiy nazoratni o`z qo`llariga olish uchun kurash olib borilayotgan edi. Dushmanlarga AQSh Nato blogining Yevropadagi bir qancha a`zolari hamda Pokiston maxsus hukumatlar qo`llab quvvatlashar edi.

1979-yil 25 dekabrda Sovet qo`shinlarini uch yo`nalishda ADR ga kirishni boshladi: Kushka, Shindon, Kandagar, Termiz, Qunduz, Qobul, Harog, Fayzobod. Desant qo`shinlari Qobul Begram Kandagar airadromlariga tushurila boshlandi. Sovet harbiy qismlariga 40 armiya boshqarmasi hukumat qilish va qismlar bilan birgalikda 4-ta diveziya, 5-alohida qo`shilma, 4-alohida polk, 4 ta harbiy aviatsiya polki, 3 ta vertalyot polki, 1 ta quvur o`tkazish brigadasi, 1 ta material ta`minoti brigadasi va bir necha boshqa qism, korxonalar bor edi. Afg`on urushi 25 dekabr 1979 yildan 15 fevral 1989- yilgacha yani 2238 kun davom etdi. Sovet qo`shinlarining Afg`onistonga kirib kelishi, jangovar faoliyati 4 bosqichga bo`linadi:

1-bosqich: 1979 yil dekabr -1980 yil fevralgacha. Sovet qo`shinlarini Afg`onistonga kiritilishi ular garnizonlarga joylashishi o`rnashgan joylarni va boshqa obyektlarni qo`riqlash.

2-bosqich: 1980-yil mart-1985-yil aprelgacha faol jangovar harakatlarni olib borish, shu bilan birga keng yo`nalishlarda Afg`on qo`shinlari va harbiy qismlari bilan birgalikda. ADR qurolli kuchlarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat edi.

3-bosqich: 1985- yil may 1986- yil dekabrgacha. Faol jangovar harakatlardan ko`proq afg`on qo`shinlari harakatiga Sovet aviatsiyasi, artilyerasi va saner bo`linmalari orqali qo`llab quvvatlash. Alohida vazifa bajaruvchi otryad bo`limalarini chetdan qurol yaroq, o`q dorilar olib kelishni oldini olish bilan shug`ullandi. 6- ta Sovet polki Vatanga qaytarildi.

4-bosqich: 1987-yil yanvar – 1989-yil fevralgacha. Sovet qo`shinlari Afg`oniston hukumati tomonidan siyosiy- milliy kelishuvni tashkil qilishni ta`minlashdi. Sovet qo`shinlarini Vataniga qaytishiga to`liq tayyorlash.

14-aprel 1988-yil BMP aralashuvida Shvetsariyada Afg`onistonda Pokiston davlatlari tashqi ishlar vazirlari tomonidan Afg`oniston atrofida siyosiy barqarorlikni tartibga solish bo`yicha Jeneva kelishuvi imzolandi. Sovet Ittifoqi o`zining qismlarini 9 oy ichidan, 15- maydan boshlab olib

chiqishini zimmasiga oldi. AQSh va Pokistonda esa Mojoxedlarni qo'llab quvvatlashni to'xtatish lozim edi.

1990-yillar boshida o`tkazilgan testlar shuni ko`rsatadiki Afg`onistondagi urush ishtirokchilarining 35-40 % I professional psixologlar yordamiga nihoyatda muhtoj edi. 1991- yildan keyin SSSR ning parchalanish, iqtisodiy inqiroz, tuzimning o`zgarishi yangi millatlararo nizolar allaqachin tugagan urushga nisbatan qiziqishning so`nishiga olib keldi. 1992-yilningaprel oyida Sovet tuzumining qo`llab –quvvatlanishining to`xtatilish oqibatida Muhammad Najibullo boshchiligidagi tuzum ag`darildi va

Afg`onistonda fuqarolar urushining yangi bosqichi boshlandi — Bu endi g`alaba qozongan mojaxedlar guruhlari o`rtasidagi o`zaro urushlar edi.

1. Razvetka rotasi
2. Yo`qolgan vzvod
3. Jannatga ikki qadam
4. Piyoda batalvoni
5. Taxaum hudud
6. Askar haqida qissa
7. Qobul markazidagi daraxt
8. Itoatkor bolalar
9. Borttexima bilan sayr Vertolyotchilar
10. Yordamdagi tiriklar

Afg`oniston: kurash davom etadi

Afg`onistonda tinchlik bo`lmas ekan, toki u yerda urush davom etar ekan, toki Afg`oniston xalqaro terrorizm o`chog`i va uni yon-atrofga tarqatuvchi makon, giyohvand moddalar yetishtirish, diniy eksremizm va va jaholatparastlik markazi bo`lib qolar ekan, Markaziy Osiyo xalqlari o`z xavdsizligi, tinchligi va farovonligi uchun hech qachon hotirjam bo`la olmaydi.

Islom Karimov

XX asrning so`nggi choragi Afg`oniston davlati, uning xalqi uchun taloto`plar, xunrezliklar, tajovuzlar, majorolar, birodarkushlik va odamkushlik, o`zaro nizo va kurashlar avj olgan davr bo`ldi.

Afg`oniston deyilganda bu jafokash, zahmatkash xalqni afg`onnola chekuvchi xalq deyishgacha borib yerildi. Xalq ona yerni qo`riqlash, uni turli tajovuzlardan asrash uchun kurashni to`xtatmadi. Bu zaminda birodarkushlik urushi boshlanib ketdi. Uni yirik davlatlar yetiltirib berdilar. Afg`oniston qurol-yarog`ni sinab ko`ruvchi ulkan maydonga aylandi. Uzoq davom etgan nu jang urushni boshlab, uni boshqarib turganlarga juda

qimmatga tushdi. Tarix hammasining saragini sarakka, puchagini puchakka ajratib, dunyoga egalik qilmoqchi, uni qaytadan bo`lib olmoqchi bo`lganlarning asl basharasini insoniyatga ko`rsatib berdi.

O`tgan asrning 70-80 yillari sobiq SSSR o`zining „gullab-yashnagan davri”ni boshidan kechirayotgandi. Zamonaviy qurol-yarog`lariga ishongan, sotsializm go`yalarini, „arksizm-leninizm ta`limotini o`n oltinchi resoublikaga yoyishga intilayotgan SSSR qadri baland bo`lgan 52 milliard rubllik insonparvarlik yordamini Afg`onistonga tutuqazdi. Ammo bosqinchilarga tish-tirnog`i bilan qarshilik ko`rsatayotgan xalqni yengish mumkin emasligini kech tushunib yetdi.

O`rinsiz sarflangan mablag`, maqsadsiz urush katta davlatni inqiroz yoqasiga keltirib qo`ydi. Afg`oniston urushi SSSRning bo`linib ketishini, respublikalarning mustaqillikka erishishini tezlashtirdi.

O`tgan asr 90-yillari boshida buning natijasi o`laroq, dunyo xaritasida yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo`ldi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo`lsak, 1979 yil sobiq sovet qo`shinlari Afg`oniston hududiga kirgach Amerika davlati ham bu hududga Xitoy, Pokiston orqali tinmay qurol-yarog` yetkazib to`g`rirog`i sotib urushni qo`llab quvvatlab turdi.

Yozuvchi G`affor Hatamov „Afg`oniston: halokatlar. Yo`qitishlar, taqdirlar”. („Xalq so`zi” 2002 yil 3,4,5, yanvar) , nomli yirik uch qismdan iborat maqolasida bu mamlakatdagi haqiqiy ahvol, mamlakat tarixi, uni boshqargan shohlar taqdiri soxta „Savr inqilobi”, sobiq ittifoqning bu diyordagi nayranglari, toliblar, urushnoing tub ildizi, urush oqibatlarini, mamlakatning giyphvand moddalar yetkazib beruvchi hududga aylanib qolgani kelajak tashvishlari kabi masalalar yuzasidan holisona , chuqur, mufassal mulohaza yuritgan.

Buyuk Britaniya Afg`onistonni xuddi Hindiston kabi bosib olish harakatini 1838 yilda boshlagan, urush 4 yil davom etib u Inglizlarning mag`lubiyati bilan tugagan.

Inglizlar 1878 yilni Afg`onistonga yana hujum qilib, qo`li baland kelgan va Afg`oniston uning siyosati bilan ish yuritgan.

1918 yilning iyulida Sovet hukumati Afg'onistonni Buyuk Britaniya nazoratidan halos bo'lishga undaydi. Biroq Amir Habibulloxon Angilya tarafdori bo'lganligi uchun Jalolobodda suyuqasd qilinadi. Hokimiyatni egallagan Omonulloxon Afg'onistonni 1919 yil 18 fevralda mustaqil deb e'lon qiladi.

Sovetlar ta'sirida bo'lgan Omonulloxon 1928 yil Moskvaga borib kelib, ruslarning rtasm rusumlarini joriy qila boshlagach Bachai Sakko Habibullo G'ozni boshchiligidagi isyonkor kuchlar hukumatga qarshi isyon ko'taradi. Keyinchalik Afg'onistonning Moskvadagi elchisi G'ulom Nabixon qisqa muddat hokimiyatni egallaydi. Omonulloxon Afg'onistondan qochib ketadi.

1929 yili General Muhammad Nodir shox Qobilni ishg'ol qilib Bachei Sakko qatl etiladi. 1973 yili Muhammad Zohir Shox o'z ixtiyori bilan taxtdan vos kechadi. 1978 yili Muhammad Dovud o'ldiriladi.

Moskvaning bevosita ayg'oqvhisi Nur Muhammad Taraqiy Prezidet bo'ldi. Afg'onistionga sovetlarning ko'plab maslahatchilari yog'ilib keladfi. Taraqiyning kamunistik hukumati odamlarni otishga, masjidlarni buzishga, el yurtni talashga kirishib ketadi. Musulmon mamlakat shunday g'arot qilinadi.

1979 yil 14 sentabr bosh vazir Hafizullo Amin unga uyushtirilgan suyuqasddan foydalanib, taraqiyni hokimiyatdan chetlashtirsdi. O'sha yilning 8 oktabrida Nur Muhammad Taqraqiy o'ldiriladi.

1992 yil iyunidan Afg'oniston Islom jamiyati rahbari Burhoniddin Rabboni prezident bo'ldi. Uning prezidentlik davri 2001 yil Amerika Afg'onistonga hujum qilib, unga Muhammad Zohir Shox romonidan muofaqt rahbar etib Hamid Korzay tayinlaguncha davom etti.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan jahon hamjamiyatiga Afg'oniston masalasi bo'yicha bir necha bor murojat qilindi. Prezident katta yuqori mimnarlardan jahonnig olovlanib turgan nuhtasi bo'lgan bu mintaqadagi ahvol borasida jamoatchilikni ogohlikka, hushyorlikka chorlab turdi.

1993 yil 28 sentabrda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov BMT assambiliyasining 48 seseyasidagi ma'ruzasida Tojik-Afg'on chegarasida tinchlik va narko biznes muammosiga to'xtalib, maskur majoro miqyoslari

potensialini uning butun dunyoga havf solayotgani keltirib chiqaradigan oqibatlarini hali to'la anglab yetmaganini qatd etdi.

Bugungi kunda Afg'on mojarasini faqat mahalliy va mintaqaviy miqyosidagi muammo deb oylagan odam mutlaqo hato qiladi. Bu masala Afg'onistondan olisda joylashgan boshqa hududlar va xalqlarning ham tinchligi, osoyishtaligiga tahdid soladigan ulkan miqyosdagi muommoga aylanib bormoqda.

2000 yilning 8 sentabrdagi O'zbekiston prezidenti Nyu-Rok da BMT bosh assambiliyasining "ming yillik samiyti" da qatnashdi. Samitda davlatimiz rahbari Afg'oniston mojarosi uning havfsizlikka bo'lgan katta tahdid ekanligini bu tahdidni bartaraf etishga BMT havfsizlik kengashi va jahon ham jamiyati kurash olib borishi lozimligi bilan bog'liq masalalar haqida nutq so'zledi:

"Xalqaro havfsizlik va barqarorlik muommosi yangi asr bo'sag'asida homon jahon hamjamiyati oldida turgan eng asosiy muommolardan biri bo'lib qolmoqda. Farq faqat shundaki, enilikda, "Sovuq urush" asoratlari, hurujlari o'niga tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi kuch sifatida halqaro terrorchilik va ekstremizim, tajovuskor millatchilik va separatizm johon sahnasiga chiqmoqda.

20 yildan ortiq vaqt mobaynida urush davom etib kelyotgan Afg'oniston bu tahdidning asosiy manbai ekanini isbotlab o'tirishga zarurat yo'q. Afg'oniston hozirgi kunda alqaro terrorchilik va ekstermizimning poligoni hamda tayanch bazasiga, milliardlab daromad keltirayotgan va xalqaro terrorchilikni oziqlantirayotgan dunyo narkotik ishlab chiqarishning asosiy manbai- fabrikasiga aylangan".

Prezidentimiz Afg'onistonda davom etayotgan urush avvalo uninng xalqini va butun Markaziy Osiyo Mintaqasini qiynab kelyotgan hudud ekanligini ta'kidladi, asosiy e'tiborni havfsizlkka qaratarkan shunday dedi: "Toki Afg'onistonda tinchlik bo'lmas ekan, toki Afg'oniston halqaro terrorism o'chog'i va uni yon-atrofga tarqatuvchi makon, giyohvand moddalar yetishtirish, diniy ekstremizim va jaholatparastlik markazi bo'lib qolar ekan, Markaziy Osiyo xalqlari o'z xavfsizligini, tinchligi va farovonligi uchun hech qachon hotirjam bo'la olmaydi".

2000 yilning 20 oktabrida Toshkentga kelgan BMT Bosh kotibi o`rinbosari narkotiklar nazorati va jinoyatchilikning oldini olish bo`yicha boshqarmaning ijroji direktori Pino Arlakki giyohvadd moddalarning 80%ni Afg`oniston yetishtirib berishini aytdi.

Giyohvand moddalarning birgina Rossiya federatsiyasiga kirib borishi 1996 yilga qadar 13,5 barobariga oshgan bo`lsa, keyingi ikki yil ichida bu o`shish 20 barobarni tashkil etgan (moskovskiy novosti).

1998 yil Afg`onistonda 1400 tonna opium yetishtirilgan, bu – Lotin Amerikasidagi barcha mamlakatlar yetishtiradigan giyohvand moddalarga nisbatan 13 barobar ko`p demakdir. Toliblar davrida giyohvand o`simlik ekiladigan hudud 19470 gektardan 41720 ga-ga, opium olish 600 tonnadan 1400 tonnaga o`sdi. (Azia I Afrika Segodnya 2000 yil fevral)

Afg`oniston hukumatini boshqargan rahbarlarning deyarli hammasi maqsadsiz kurashning qurboniga aylangan edilar. Muhamma Taraqiy, Hafizulklo Amin, Najibullo hayotlari fojea bilan yakunlandi.

1996 yilda parchalanib yotgan davlatni Mulla Umar yetakchiligidagi tolibonlar qo`lga , kiritdilar va Najibulloni dorga osishdi. Jaholatga berilgan muraasiblar hokimiyatni maktablat yoqib yuborildi, kinoteatr va oily o`quv yurtlari yopib tashlandi. Ayollarning o`qishi ishlashi, yolg`iz ko`chaga chiqishi, erkaklarning soqoliga tig` tekkizishi, tv, raqs, tasviriy san`atdan bahramand bo`lish, suratga tushish taqiqlandi. Hatto Navro`z bayrami ham taqiqlandi. Budda yodgorliklari yakson qilindi. 2001 yilning 2 oktyabrida O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov Afg`oniston va uning tevaragida bo`lgan voqealar munosabati bergan

Bayonotida shunday deydi: „Butun „tolibon” panoh topib mozori sharif yoki toxarda, kunduz yoki Kobulda, Qandahor yoki Jalolobodda bo`ladimi, harbiy lagerlarda odamhushlikni kasb qilib hayraton ko`prigining narigi tomonida bizga o`zining jirkanch basharasini ko`rsatib, tish qayrab turgan ana shunday terrorchi, gazandalarni uyasi borligi biz uchun siz emas”.

Prezident Najibullo BMT ning Bosh Assambleyasida bu urush Afg'onistonni yarim asr ortga surib tashlaganligini, u mamlakatga 1.8 trillion dollarga yaqin zarar yatkazganligini qayd etgan edi.

Prezideny Islom Karimov ta'kidlaganidek, qancha-qancha shahar va qishloqlarning yoqib yuborilishi, insonlarning bemavrid qurbon bo'lishi, onalar va bolalar qalbidagi bitmas tunganmas jarohat, jafokash xalq boshiga tushgan kulfat shu urush tufaylidir.

Bu fojيانing nima ekanligini anglamoq uchun odamzot uni o'z ko'zi bilan ko'rishi, sitamlarini yuragidan o'tkazib, mohiyatini idrok etishi kerak.

Sovet qo'shinlari Afg'onistonga bostirib kirgach, AQSH ma'muriyati "SSSR ga qarshi iqtisodiy jazo choralariqo'llanishi" rasman ma'lum qilgan. Aslida soniq Ittifoq Afg'onistonga qo'shin kiritgan davr, 1979 yilning 27 dekabrda uning AQSH va Garb davlatlaridan qarzi 30 milliard dollardan oshgan edi.

Og'ir talofat va ortiqcha harbiy harajatlarga sabab bo'lgan be'mani urush, dunyoni daxshatga slogan Chernobil fojeasi, butun bir shaharni yar bilan yakson qilgan Armanistondagi zilzila, mamlakatdagi yalpi inqiroz hayotni qon qaqshatib, imperiyani halokat yoqasiga olib kelgan, hayot-momot masalasi oldida buyuk davlatchilik da'vosi o'z mohiyatini tamoman yo'qotgan edi.

"Biz o'zga madaniyatga, o'zga a'tiqod va ananalarga tajovuz qildik- deb o'qtiradi Afg'on urushi qatnashchisi, yozuvchi Aleksandr Proxonov "Afganskaya voyna: kak eto bilo" kitobida.

-- Nega? Nima uchun o'n yil mobaynida urush olib bordik?...

Biz ularni tinchini buzdik, mamlakatini vayron etdik. Shu bois ular bizdan yuz o'girdi va o'qqa tutishdi" (Moskva, "Planeta" nashriyoti, 1991 yil).

1989 yil 15 fevralda general Boris Gromov sovet qo'shinlarini Xayraton ko'prigidan olib o'tgach, bu halqni unutishdi. Afg'onistonda qanday vaziyat vujudaga keldi? Boshqarib bo'lmaydigan bir vaziyat yuzaga keldi. Qonunsizlik nafaqat jinoyatchilikka, balki vahshiylik ildiz otishiga, qurol kuchi bilan hukmni o'tkazishga zamin yaratdi. Eng dahshatlisi, bu qora kuch narkomafiya bilan chatishib ketdi.

Bu notinch va beqaror vaziyat yigirma ikki yil davomida hukm surdi, chunki urushning jabru-bechoralar, jafokash Afg'on xalqidan boshqa kuchlar uning cho'zilishidan manfaatdor edi.

Butun boshli mamlakatni, xalqni qonga botirgan zunrezlik, avvalo, bu nozik masalaga sayoz qarashlar, Afg'on tarixidan chiqadigan xulosalarni mensimaslik va pisand qilmaslik oqibatida vujudga kelgan dsak, xech qnday hato bo'lmaydi.

O'tgan asrning 70-yillari oxirida sobiq SSSR ning keksayib, munkillab qolgan rahbarlari uzoqni ko'rolmasliklari, kaltabinlikgi natijasida o'ta xatarli, hech kechirib bo'lmaydigan qaror qabul qildilar.

Ular, Prezidentimiz ta'biri bialn aytganda, mavjud vaziyatni soxtalashtirib, uni o'zlaricha talqin qilib, Afg'onistonda ham sovet sotsiolistik tuzumini o'matamiz deya ahmoqona harakatlari boshladi.

Lo'nda qilib aytganda nafaqat, Afg'oniston atrofida joylashgan qo'shni davlatlar uchun, ongli hayot kechirayotgan barcha xalqlar uchun tinch-totuv yashaydigan, betaraf bo'lgan va barqaror rivojlanish yo'lidan boradigan yangi Afg'oniston kerak.

Afg'onistonda tinchlik o'matish, urush tufayli vayron bo'lgan iqtisodiyotni oyoqqa turg'zish, yer bialn tep-tekis bo'lib yotgan shahar va qishloqlarni, bino va turar joylarni tiklash maqsadida mablag' yig'ish, xalqaro jamg'arma tuzish, eng muhimi bu mamlakatda yashayotgan barcha odamlarda o'z yurtining kelajagiga ishonch uyg'otish, axoliga, Afg'on xalqiga bu boshboshdoqlik, zulm va qatag'onlar tugaydi, degan kafolatni berish hozirgi kunda eng muhim vazifaga aylanmoqda.

O'zbekiston tashabbusi bilan BMT homiyligiga tashkil topgan "6+2" guruhini Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvida davlatimiz rahbari Afg'onistonga keng ko'lamli insonparvarlik hamda moliyaviy-iqtisodiy yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqish taklifini ilgari surgan edi.

O'zbekiston bugungi kunda Afg'onistonga 12 ta ko'prik va Termiz-Qarshi avtomobil yo'li qurulishida katta ko'mak bermoqda.

Prezident Islom Karimov fikricha, bu yil Hind okeaniga olib chiqib, dunyoning behudud ummonlari bilan bog'laydi. Qurilajak yo'l siyosiy va iqtisodiy jihatda beqiyos ahamiyatga molikdir. Nimaga deganda, suv yo'li orqali yuk tashish qulay, shu bilan birga arzon. Salkam 2.5 ming kilometr tashkil etadigan bu yil ishga tushirilsa, nafaqat O'zbekiston xalqi, balki Afg'oniston va pokistonda istiqomad qilayotgan minglab, millionlab insonar uchun ham yangi-yangi imkoniyatlar ochiladi, yangi ish joylari yuzaga keladi, hamkorligimiz, madaniy aloqalarimiz mustahkamlanadi. Xalqlarimiz dunyo bozoridan yana o'zlarining munosib o'rinlarini egallaydi.

O'zbekiston Prezidenti 1996 yilning 5 iyulida diplomatik korpus rahbarlari, halqaro tshkilotlar va xorijiy jurnalistlar bilan uchrashuvda Afg'onistonda tinchlikni qaror toptirish bo'yicha O'zbekiston ilgari surgan tashabbuslarini BMT, BMT ning Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi, AQSH Kongressi, Eron va pokiston rahbariyati qo'llab-quvvatlaganini, Afg'oniston hududidan o'tadigan neft-gaz quvurlari va boshqa kommunikatsialar bo'yicha boshq loyihalar hozir muhokama etilayotganligini ma'lum qildi: "Keng ko'lamlı bu ishlar aholini tinch mehnatga qaytarish uchun hal qiluvchi rag'batli omil bo'lishiga, mamlakat iqtisodiyotining tiklash uchun zarur bo'lgan dividend va daromadni berishiga qat'iy aminman. Mazkur loyihalar Afg'oniston manfaatlariga xizmat qiladi". Afg'onistonda tinch - osuda hayotni tiklashda faol ishtirok etayotgan mamlakat qo'shni Eron respublikasidir. Afg'onistonda iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy hayotni to'la tiklashda ishtirok etib, shu tarzda uning kelgusi siyosiy tuzimi tuzilishiga tasir ko'rsatish Eron manfaatlariga to'la mos keladi. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, u Afg'onistonda AQSH siyosati ustun bo'lishini hohlamaydi. Sababi, Amerika Eronni ham Iroq va Shimoliy Koreya singari davlatlar bilan bir qatorga qo'ygani Shimoliy Koreya singari davlatlar bilan bir qatorga qo'ygani ma'lum. Eronning AQSh ga munosabati ana shundan kelib chiqadi. Eron Afg'onistonning "Dunyoviy" mamlakat emas, balki o'zining modelidagi islom davlati bo'lishini istaydi.

Ikkinchidan, Eron Afg'onistondagi izdan chiqqan turmushni tiklashda ishtirok etish orqali o'zining sharqiy chegaralarini mustahkamlab, xavfsizligini ta'minlaydi.

Uchunchidan, Eronda ishlab chiqarish, ya'ni oziq-ovqat sanoati yaqin atrofdagi davlatlarga nisbatan ancha rivojlangan. Ammo yaqin vaqt orasida u o'z mahsulotlarini Yevropa yoki boshqa rivojlangan mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Birdan-bir yo'l – o'z mahsulotlarini Markaziy Osiyo bozorlaridan tashqari Afg'oniston bozorida sotishni yo'lga qo'yishdir. Bu borada hamma narsaga muhtoj Afg'oniston Eron uchun yaxshi iste'molchi sanaladi. Afg'onlar o'zlari istemol qilayotgan mollar islom davlatida chiqarilgani uchun ham ularni bajonidil qabul qilishadi.

Afg'onistonda Karzay boshchiligidagi doimiy hokimiyat tuzilgan bo'lsa-da, mamlakatda barqaror osoyishtalik vujudga kelishiga hali ko'p vaqt bor. Vaqti-vaqti bilan turli hududlarda hokimiyat va amal talashishlar, otishmalar, qo'poruvchilik harakatlari bo'lib turibdi. Shunga qaramasdan mamlakat hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Turli etnik guruhlar va millatlardan tashkil topgan 26 millionli Afg'on xalqi o'z davlatchiligiga ega bo'lib, BMT ning faol subektiga aylanajak.

Xulosa

Sovet Afg'on munosabatlari turli jabhalarda ko'p yillik tarixga ega. XX asrning 70 yillari esa biz uchun nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Aynan manashu davrda Afg'onistonda inqilob ro'y berdi va Sovet qo'shinlarining cheklangan qismi ushbu mamlakatga kiritildi.

Sovet ittifoqi boshidanoq Afg'onistondagi inqilobni qo'llan-quvvatladi. U SSSR ning Global siyosatidagi muhim bo'g'in edi. Shu bois Sovet rahbariyati qaltis qadam qo'yishga qaror qildi.

AQSH SSSR ning Afg'onistonda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga yo'l qo'ya olmas edi va ular Pokistonni Sovet tajovuzini qaytarish uchun o'ziga xos platsdarmga aylantirdi. Pokiston hududida Afg'on jangchilari uchun lagerlar qurildi, AQSH ularga eng zamonaviy qurollarni berdi. „Stingerlar“ samalyotlar bilan kurashda qo'laniluvchi yengil raketalar Sovet Ittifoqini osmondagi ustunlikdan mahrum etdi. Urush cho'zilib ketti.

Afg'onistonda davom etgan 10 yillik urush mamlakat iqtisodiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Yuzlab qishloqlar, 2 ming maktab vayron etildi, o'nlab elektron-stansiyalar buzib tashlandi, o'nlab sanoat korxonalar faoliyati to'xtab qoldi.

5 million Afg'on, ya'ni mamlakat aholisining qariyb garchi qoshni Pokiston hududiga, 1.5 million Eronga qochib ketdi. Bu yerda yosh Afg'onlardan mujohidlar guruhleri tuzilib, ular Amerikalik mutahassislar tomonidan zamonaviy qurollarni ishlatishga o'rgatildi.

1989-yilda Sovet Ittifoqi urushni bundan keyin davom ettirishning foydasizligini tushunib yetib, o'z qo'shinlarini Afg'oniston hududidan olib chiqib ketdi. Shu o'rinda taniqli yozuchimiz A.Nurmurodao ning quyidagi so'zlarini keltirib o'tsak:

„Afg'oniston..... O'n yillar mobaynida jahon afgor ommasining diqqat markazida turdi; o'n yillar mobaynida jahon afgor ommasi bu yurt tuprog'ida borayotgan qonli urush haqidagi haq so'zni eshitishga ilhaq bo'ldi.

Taassuflarki, kurash sharoitida oshkoralik deya ayuhannos solayotganlar ham bu haq soʻzning metin tigʻiga dosh berolmadilar, oʻzlarining haqiqiy qiyofalarini shundagina alayno-oshkor namoyish etdilar¹. Halqimiz vujudidagi necha-necha teran tomirlarning tub ildizlari shu yurt tuprogʻiga borib tutshgani sir emas. Shundanmikin, u haqda haq soʻzni aytmoq, u haqda kuyinmoq eng avvalo bizning zimmamizda edi.

Yoʻq, odatdagidek aytolmadik. Natijada minglab guldek farzandlarimizning orzu-armonlari, xayollari vujudlari-la qora tuproqqa qorishdi.

Afgʻoniston haqidagi haq soʻz uch-toʻrtta yigʻloqi sherlar satrlarida emas, minbarlarda emas, ul shahid ketgan askarlar onalarining xunolud yoshlarida, tunu kun, kunu tun mijja qoqmay chekkan iztiroblarida aytili. Mayib majruh askarlarning „mening gunohim nimada edi?“ degandek alamli boqishlarida aks etti. Ernst Xeminguey “Alvido, qurol!” romanining 1948 yilda yozgan soʻz boshisida shunday degandi: “Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar eng ajoyib odamlardir. Frontning qizgʻin qismlariga kirib borganing sayin bunday ajoyib kishilarga koʻproq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishgan boshqa natsani oʻylamaydigan toʻngʻizlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muatar vakillari tomonidan orib tashlanmogʻI zarur deb hisoblayman”.

Bosqinchi va bosqinchilik tushunchalari ham mana endi shuurimizning qat-qatlariga yetib bordi. Biyday ulkan mamlakatning uyogʻidan-buyogʻiga, buyogʻidan-uyogʻiga sarson-sargardon koʻchib yurgan qochoqlar saltanat hukmininig qurbonlari boʻlganidek, bu tahir qismatlarida oʻzlarining zarracha ayb-gunohlari boʻlmaganidek, Afgʻonistonda hizmat qilgan jangchilarning

¹ A.Nurmurodov Qonli yoʻrgaklar. Ikkinchi nashr. T.:”Oʻzbekiston”,1993 yil.

ham bo`yinlariga tavqi-lanat tushmagay. Bu tavqi lanatning kimlarga osilishi, kimlarning abadul-abad nafratga mustahiq etilishi endilikda barchaga ayondir.

Afg`onistonga cheklangan sovet qo`shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlari mavzusini o`qitishni yangi pedagogik texnologiya va metodlarda o`tish.

3.1. Mavzuni yangi ped.texnologiya kompyuter, proyektor, monitor yordamida o`tish (rasmlar, slaydlar, chizmalar, jadvallar , testlar yordamida)

Mavzu: Afg`onistonga cheklangan sovet qo`shinlarining kiritilishi va uning salbiy oqibatlari

II.Maqsad: Ushbu mavzu orqali o`quvchilarga Afg`on urushlari, urushga sovet qo`shinlarining kiritilishi to`g`risida o`quvchilarga tushuntirish.

A)Darsning tarbiyaviy maqsadi.

Ushbu mavzu orqali o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

B). Dars jixozi: Dunyo siyosiy xaritasi, proyektor, monitor, tarqatma materiallar, test mavzuga oid jadval.

B). Dars uslubi: Baxs-munozaralari.

Yangi pedagogik texnologiya asosida.

1. Aqliy xujum-5 d
2. Guruh bilan ishlash -10 d.
3. O`tilgan va yangi mavzu. 15-d.
4. Amaliy mashg`ulot. 5-d.
5. Uyga vazifa. 5-d.

Tashkiliy qism:

III. Aqliy xujum.

Afg`on urushlarining salbiy oqibatlarini aytib bering?

Javoblar doskaga yozib boriladi.

IV.Yangi mavzu bayoni:

Afg`oniston – zamonlar rishtasi chindan-da uzilib qolgan, bir vaqtlar bu zaminda mavjud bo`lgan, hozirgi tojiklar va o`zbeklarning ajdodlari yashagan buyuk sivilizatsiya va davlatlarning izlarini davr to`zonlari ko`mib yuborgan mamlakat. Natijada bu joyda yashagan halqlar u yerdan ketib qoldi- kim

janubga, kim shimolga, kim g'arbiga. Qadim zamonlarning bazi memorchilik yodgorliklarigina saqlanib qoldi¹.

XIX asr ohirida Afg'onistonning shimoliy chegarasi hozirgi hozirgi holatiga Rossiya, Britaniya, va Afg'oniston mamlakatlari tomonidan tan olinganidan keyin, Buxoro amirligining turkiy tili va forsiy tili aholisi jo'g'rofiy gorizontal bo'yicha bir-biridan ajralib qoldi. Lekin bu hol o'sha vaqtda ularning oilaviy va savdo aloqlari buzilishiga olib kelmadi. Qizil armiya Buxoro amirligini tor-mor qilganidan keyin Sharqiy Buxoroning yarim millionga yaqin aholisi Afg'onistonning chegaraga yaqin yerlariga qochib boradi. Umuman esa, XX asrda Afg'oniston O'rta-Osiyodan muhojirlikning uchta-yigirmanchi yillar boshidagi, o'ttizinchi yillar o'rtalaridagi va to'qsoninchi yillar boshlaridagi to'liqini boshidan kechirdi.

Bu hol Afg'on bo'lmagan etnoslar salmog'i o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridayoq mamlakatdagi O'zbeklar va tojiklar soni deyarli 30 % ga yetdi.

Armiya qismlari 1978 yilning 27 aprelida AXDP rahbarligida davlat to'ntarishi o'tkazdilar. To'ntarishni polkovnik Abdulqodir boshqardi¹. Hokimiyat kengash qo'liga o'tdi. Bu kengashga AXDP rahbari N.M. Taraqqiy rahbarlik qildi. B.Karmal unga o'rinbosar bo'ldi. Dovud o'ldirildi. 1977 yilgi Konstitutsiya bekor qilinib, 1978 yil 30 aprelda mamlakat Afg'oniston Demokratik Respublikasi deb e'lon qilindi.

Bu g'oyaning Afg'oniston uchun bema'niligi va mutlaqo norealligi yaqqol ko'rinib turardi. Qobuldagi aprel to'ntarishi (Afg'onistonda qabul qilingan taqvim bo'yicha - savr oyining 7-kuni) Qobul garnizoning 4 va 15-tank brigadalari tomonidan amalga oshirildi. O'sha vaqtda podsho saroyi qo'riqchilariga tanklar bilan hujum qilish. Afg'oniston hayotida ham, butun mintaqa hayotida ham tub o'zgarishlarga olib keladi, deb hech kim o'ylamagan edi. Ayniqsa, u Sovet Ittifoqi parchalanib ketishining bilvosita

¹ . L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: "O'zbekiston", 2001, 294-b

¹ M.Lafasov. U.Jurayev. Jahon tarixi. T.: "Turon -Iqbol nashriyoti", 2006, 270-b.

sabablaridan biri bo'lishini hech kim bilamagan.² ADP e'lon qilingach, Taraqqiy o'z mavqeyini mustahkamlash maqsadida SSSR bilan munosabatni yaxshilay boshladi.

Uyga vazifa

Mavzuni o'rganish.

IV. BOB.

2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi faol shaxs sifatida o'zi mustaqil fikrlashi, bir xil mohiyatli hodisalarni tushunib, tahlil etishi natijasida voqea-hodisalarda yashiringan ko'zga yaqqol ko'rinmaydigan ba'zi tafsilotlarni mustaqil ravishda ocha olish, xususiylklarni umumiylikka birlashtira olish qobilyatini o'zida rivojlantirishi lozim. Shundagina, birinchidan o'quvchida dars-mashg'ulotga qiziqish kundan-kunga ortib boradi.

Ikkinchidan, o'z shaxsiy tahlili natijasida hosil qilingan bilim, ko'nikmalar uning xotirasiga o'r mashadi.

Uchinchidan, mustaqil tarixiy-tahliliy usul bilan hosil qilingan malaka va ko'nikmalarni o'quvchilarning o'zi boshqa mavzularni o'zlashtirishda erkin fikrga ega bo'ladi.

O'qituvchi esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, izlanishini, ijodkorligini boshqarib boradi.

O'qituvchining oldida turgan muhim vazifa ko'rgazmalar, tarqatma varaqalar, turli krasvordlar, test savollari orqali o'quvchilarga mustaqil ish va topshiriqlar berish yo'li bilan o'quvchilarning o'rganilayotgan davr mohiyatini mustaqil ravishda ochishlariga yo'naltirishdan iborat. Faqat shu usul bilan o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalari va tarixiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Tarixni o'qitishda ta'limning turli metod va usullaridan baxs-munozara, suxandonlik darsi, bilimlarni mustaxkamlash darsi, unumlashtirish darsi-noa'naviy darslarda o'z o'rnida foydalanish yaxshi natija beradi¹.

² L.Levitin. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: „O'zbekiston“, 2001, 296-b

¹ Таълим тараққиёти журнали. Т, 2001, №3.

Dars jarayonida krassvord, chaynvord, xronorogik topshiriqlarning javobini topish, tarixiy loto, turli viktorina savollariga to'g'ri javob topish, o'quv o'yinlari «Aqliy xujum», «Muzyorar», «Qarorlar shajarasi», «Yozma baxslar», «Mening fikrim» va hokazo usullardan foydalanish pirovord natijasi (Monitorinchi) o'quvchilarda quyidagi ko'nikma va malakani shakllantiradi.

1-bosqich	O'rganish	Esda saqlash
II-bosqich	Tushunib yetish	O'zlashtirganini isbot eta bilish
III-bosqich	Tahlil eta bilish	Qiyoslash, xulosa chiqarish, uzaro bog'lash
IV-bosqich	Tadbik eta bilish	Qoida qonunini anglash va kullash
V-bosqich	Sintech	Axborotni ijotiy kpytya ittgsh otittt
VI-bosqich	Baxo olish	Yangi bilimga ugish

Bunday tizimda o'quvchi ham o'qituvchi ham mashg'ulot jarayoniga birgalikda ma'suldirlar.

Bu o'quvchiga «Sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da'vatdan «Menga bu zarur va men buni bilishga, uni tahlil qilib, xulosa chiqarishga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni yuzaga kelishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiya tanlashda va o'quv mashg'ulotiga joriy etishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. Konkret davr, bosqich uchun tanlangan usulning mos kelishi.
2. Ta'lim mazmuniga mos kelishi.
3. O'quvchilarning psixologik va fiziologik imkoniyatlariga mos kelishi.
4. Sinflarda tarkib topgan o'quvchilar guruhining o'ziga xos tomonlarini hisobga olish.
5. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun pedagogik jarayonni yaratish.

6. Mashg'ulot jarayoni davrida yuzash kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish tizimini ishlash chiqish o'quvchilardan tarixiy sharoitni yaxshi bilish, o'rganilayotgan voqealarning sabab oqibatlari va ahamiyatini tahlil qilish hamda teran tushunish ko'nikmasini shakllantirishda dalillar bilan qonuniyatlar yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

- Bunda tarixiy muammolar bo'yicha fikr almashishga mo'ljallangan ishchanlik o'yinlari ahamiyatga ega. Bu o'yinni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

- avvalo ishchanlik o'yinining yo'nalishi va maqsadini aniq belgilab olish ;
- ishchanlik o'yinining senariysini ishlab chiqish;
- senariy bo'yicha o'quvchilarni tanlash va o'yin rollarini taqsimlash;
- o'yinni maqsad va rejaga mos holda boshqarib borish;
- o'yinni yakunlash, erishilgan natijalardan xulosa chiqarish jahon tarixining yangi va eng yangi davrlari tarixini o'qitishda o'rganilayapti, kutilayotgan o'quv davri (chorakla,. birinchi yarim yillik va o'quv yili yakuni) yoki o'quv mavzusi uchun, sinflar va fanlar kesimida kamida ikki variantda nazorat (test savollari, yozma ish materiallari va boshqalar) to'plamlar tayyorlanadi. Ishlab chiqilgan nazorat materiallari tanishtirish bo'limlari va sektorlarida jamlanadi, tizimga solinadi va monitoring jarayonida qo'llaniladi¹.

Mazkur materiallardan umumta'lim maktablari rahbarlari ham maktab ichki nazorati doirasida foydalanish mumkin.

O'zbekiston tarixi uchun nazorat materiallarini tayyorlashda D.T.S. va o'quv dasturlarida ko'zda tutilgan va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma va malakalar qamrab olinadi.

Variantlardagi birday raqamga ega savollarning har biri aniqlanayotgan bilim ko'nikma va malakalar ro'yxatiga mos ravishda o'zaro mutonosib ravishda tuzilishiga qat'iy e'tibor qaratish lozim.

¹ Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари. Т, 1999.

Tayyorlangan nazorat ishlari variantlarni puxta tekshirib chiqilgan test kalitlari ya'ni nazorat ishlarining javoblari bilan ta'minlanadi.

Nazorat ishlari bo'yicha o'quvchi javoblarni qayd etish uchun «o'quvchining javob varaqasi» tayyorlanadi, javob varaqasi fan o'qituvchisi tomonidan tekshirib yakunlanadi.

Monitoring tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsad, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarning paydo bo'lishi sabablarini o'rganish, shu asosda bo'shliqlarning paydo bo'lishini oldini olish va ta'lim samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli chora tadbirlar belgilash va ularning izchil amalga oshirishdir. Majburiy ta'lim minimumlarni to'liq o'zlashtira olmagan har o'quvchi bilan o'zlashtirilmagan bilim, ko'nikma va malakalar (BKM) ning elementlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar o'tkazish, vazifalar berish va nazorat qilish yo'llari orqali mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishga erishishdir.

Test savollari

1. Qobul shahrida saqlanib qolgan qadimgi qo`rg`onni belgilang?
 - a) **Bolo Hisor**
 - b) Bog`i Hisor
 - c) Hisor
 - d) Hitori bog`

2. Afg`onistonning eng yirik etnosi.....?
 - a) barbar
 - b) tojiklar
 - c) afg`onlar
 - d) **pushtunlar**

3. Pushtunlar o`zlarining dastlabki davlat tuzilmalarini nechanchi asrda barpo etganlar?
 - a) X asrda
 - b) **XVI asrda**
 - c) XVIII asrda
 - d) IX asrda

4. Eron shohi Nodirshoh Afg`oniston hududini qachon bosib olgan?
 - a) XVI asrning oxirlarida
 - b) XVII asrning o`rtalarida
 - c) **XVIII asrning birinchi yarmida**
 - d) XIX asrning boshlarida

5. Durroniylar saltanatiga qachon asos solingan?
 - a) **1747-1818 yy**
 - b) 1656-1687 yy
 - c) 1874-1876 yy
 - d) 1838-1842 yy

6. Birinchi ingliz-afg`on urushi qachon bo`lib o`tgan?

- a) 1878-1880 yy
- b) 1879-1881 yy
- c) 1838-1842 yy**
- d) 1818-1819 yy

7. 1919 yilgi Buyuk Britaniyaga qarshi milliy-ozodlik urushiga qaysi Afg`oniston podshosi yetakchilik qilgan?

- a) Omonullaxon**
- b) Nodirshoh
- c) Subhonqulixon
- d) Husayn Bayqaro

8. 80-yillarning o`rtalarida Afg`onistonda o`zbeklar va tojiklar soni qanchaga yetgan?

- a) 40%
- b) 50%
- c) 25%
- d) 30%**

9. Afg`onistondagi 1978 yilgi to`ntarishni kim boshqargan?

- a) Omonullaxon
- b) Nodirshoh
- c) Polkovnik Abdulqodir**
- d) Dovud

10. SSSR qo`shinlari Afg`oniston hududida (harbiy operatsiyalarda qatnashgan) necha yil turgan?

- a) 15 yil
- b) 10 yil**
- c) 17 yil
- d) 18 yil

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – T.: Sharq, 1998 yil
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T.: „O`zbekiston” 1998 yil
3. Karimov I.A. O`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurmoqdamiz „Turkiston” gazetasi muhbirlarining bergan savollariga javoblari. „Turkiston” gazetasi, 1999 yil 2-fevral
4. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: I-tom, 2001 yil
5. Shamsutdinov Rustam. Jasoratga to`la hayot sohibi. Andijon, 1991 yil
6. F.Qilichev Zulmatdan sadolar, T.: Adolat, 1994 yil
7. R.Rajabov O`zbekiston tarixi (1917-1993 yilar) T.: „O`qituvchi” 1994 yil
8. Q.Rajabov Farg`ona vodiysidagi istiqloqlilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924 yillar) T.: 1994 yil
9. Shamsutdinov Rustam. „Bosmachilikni qanday baholash kerak”. „Fan va turmush”. 24-son 1995 yil
10. Boymirza Hayit. Yorug` kunlar orzusida. „Jahon adabiyoti”. 11-son, 1998 yil. 11. Mansurxo`ja Xo`jayev. Shemuhammadbek Qo`rboshi. T.: „Sharq” 2008 yil
11. R.Shamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi, T.: „Sharq” 2010 yil
12. Narzulla Jo`rayev, Shodi Karimov. „O`zbekiston tarixi” T.: „Sharq” 2011 yil